

**O'zR Intellektual mulk agentligining TXXKning 21-sinf tovarlariga nisbatan MGU 2015 1432-sonli talabnoma bo'yicha "VICKS" tovar belgisini ro'yxatdan o'tkazishni rad etish to'g'risidagi qaroriga S.M.Axmedjanov tomonidan topshirilgan AMG 2017 004 sonli apellyasiyani ko'rib chiqish natijalari bo'yicha 2017 yil 27 iyuldagi
APELLYASIYA KENGASHNING QARORI**

I. Apellyasiya topshirgan shaxs va O'zR Intellektual mulk agentligi (bundan buyon - Agentlik) o'rtasida yuzaga kelgan baxs predmetini muhofazasi TXXKning 21-sinf tovarlariga nisbatan so'ralayotgan MGU 2015 1432-sonli talabnoma bo'yicha "VICKS" tovar belgisini ro'yxatdan o'tkazishni rad etish to'g'risida Agentlik tomonidan qabul qilingan qarorning qonuniyligi tashkil qiladi.

II. Baxsga sabab bo'lgan "VICKS" tovar belgisining talabnoma beruvchisi, topshirilgan apellyasiya va uni ko'rib chiqish bo'yicha Apellyasiya kengashi majlisining o'tkazilish vaqti, sanasi va joyi to'g'risida o'z vaqtida xabardor qilinganiga qaramay, Apellyasiya kengashining majlisiga kelmadi.

O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligining Apellyasiya kengashiga apellyasiyalar va arizalarni topshirish va ko'rib chiqish qoidalarining (2009 yil 24 yanvarda 1889-son bilan ro'yxatga olingan) 23-bandiga muvofiq, ishni ko'rib chiqishda qatnashish huquqiga ega bo'lgan, Apellyasiya kengashi majlisining o'tkazilish sanasi va vaqtdan xabardor qilingan har qanday shaxsning majlisga kelmasligi ishni ko'rib chiqish uchun to'siq bo'la olmaydi.

Apellyasiya topshirgan shaxs Agentlikning Apellyasiya kengashidan MGU 2015 1432-sonli talabnoma bo'yicha "VICKS" tovar belgisini TXXKning 21-sinf tovarlariga nisbatan (tish cho'tkalari; elektr tish cho'tkalari) O'zbekiston Respublikasi hududida ro'yxatdan o'tkazish to'g'risida qaror chiqarib berishni so'raydi.

III. Apellyasiyada qo'yilgan masalalarning mohiyati bo'yicha Apellyasiya kengashiga taqdim etilgan o'z fikr-mulohazalarida ekspertiza, jumladan, qabul qilingan qarorning haqqoniyligiga dalillar keltirdi.

IV. Ish bo'yicha materiallarni o'rganib va apellyasiya qatnashchilarining chiqishlarini eshitgach, Apellyasiya kengashi apellyasiya topshirgan shaxsning dalillarini asossiz deb topadi. Talabnoma berilgan belgining muhofazaga layoqatliligini baholashda O'zbekiston Respublikasining "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida"gi 2001 yil 30 sentyabrdagi Qonuni (bundan buyon - Qonun) va "Tovar belgisi va xizmat ko'rsatish belgisini ro'yxatdan o'tkazish uchun talabnoma tuzish, topshirish va ko'rib chiqish qoidalari" (2009 yil 29 iyulda 1988-son bilan ro'yxatga olingan) (bundan buyon - Qoidalar) huquqiy baza vazifasini o'tadi.

Ekspertiza olib borish jarayonida fonetik jihatdan aynan o'xshash quyidagi tovar belgilari aniqlandi: O'zRning 1356-sonli guvohnomasi bo'yicha "VICKS" tovar belgisi; O'zRning 1357-sonli guvohnomasi bo'yicha "VIKS" tovar belgisi; O'zRning 1354-sonli guvohnomasi bo'yicha "VICK" tovar belgisi; O'zRning 1360-sonli guvohnomasi bo'yicha "WICK" tovar belgisi; O'zRning 1355-sonli guvohnomasi bo'yicha "VIK" tovar belgisi; O'zRning MGU 18440-sonli guvohnomasi bo'yicha "KVIKS" tovar belgisi.

Qoidalarning 114-bandiga muvofiq tovarlarning bir jinsliligini belgilashda iste'molchida shu tovarlar bitta ishlab chiqaruvchiga qarashli degan qat'iy tasavvur paydo bo'lish imkoniyati aniqlanadi.

Yuqorida bayon qilinganlar asosida Apellyasiya kengashi
QAROR QILADI:

1. MGU 2015 1432-sonli talabnoma bo'yicha TXXKning 21-sinf tovarlariga nisbatan "VICKS" tovar belgisini ro'yxatdan o'tkazishni rad etish to'g'risidagi Agentlik qaroriga qarshi topshirilgan apellyasiya qondirilmasin.

2. MGU 2015 1432-sonli talabnoma bo'yicha TXXKning 21-sinf tovarlariga nisbatan "VICKS" tovar belgisini ro'yxatdan o'tkazishni rad etish to'g'risidagi Agentlik qarori o'z kuchida qoldirilsin.